

**QORAQALPOQSTON HUDUDIDA VERMIKULITNING XOMASHYO SIFATIDA
DOLZARBLIGI**

Saparbaeva B.J

*Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti kimyo-texnologiya fakulteti
stajyor oqituvchisi*

Annotasiya: *Mazkur maqolada qurilish, qishloq xo'jaligi, chorvachilikda va boshqa sohalarda har xil maqsadlarda ishlatiladigan eksportbop mahsulot vermikulit rudasining qanshalik ahamiyatli ekenli, vermikulitni qollashga doir ko'rsatmalar va ishlab chiqarishdagi orni, Qoraqalpoqston Respublikasidagi tebinbuloq koni ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *xomashyo, vermikulit, tebinbuloq, ruda, Qoraqalpoqston, o'g'it, qurilish.*

**ACUALITY OF VERMICULITE AS RAW MATERIAL IN THE TERRITORY OF
KARAKALPAKSTAN**

Abstract: *This article shows the importance of vermiculite ore, an exportable product used for various purposes in construction, agriculture, animal husbandry, and other fields, instructions for keeping vermiculite and its role in production, Tebinbulok mine in the Republic of Karakalpakstan.*

Key words: *raw material, vermiculite, Tebinbulok, ore, Karakalpakstan, fertilizer, construction.*

**АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВЕРМИКУЛИТА В КАЧЕСТВЕ СЫРЬЯ
НА ТЕРРИТОРИИ КАРАКАЛПАКСТАНА**

Аннотация: *В данной статье показано значение вермикулитовой руды - экспортного продукта, используемого для различных целей в строительстве, сельском хозяйстве, животноводстве и других областях, инструкция по хранению вермикулита и его роль в производстве, рудник Тебинбулок в Республике Каракалпакстан.*

Ключевые слова: *сырье, вермикулит, Тебинбулок, руда, Каракалпакстан, удобрение, строительство.*

KIRISH

Tabiiy va mineral resurslarni himoya qilish, ko'paytirish va ulardan oqilona foydalanish faoliyatini takomillashtirish, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq qonunchilik talablari buzilishi holatlarini aniqlash va ularning oldini olish, davlat organlari rahbarlari va xo'jalik subyektlarining shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish,

shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863 son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "2021-2022 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-xomashyo va mineral resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha xomashyo bazasini kengaytirish hamda shu asosda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorga asosan, vermikulitni qazib olish va qayta ishlash sohasida: yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish shartlariga xomashyoni mustaqil yoki boshqa tadbirkorlik subyektlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash shartlarini kiritish, vermikulitdan foydalanish samaradorligini, shu jumladan, xomashyo ajratib olish koeffitsiyenti, ishlab chiqariladigan mahsulot sifati va uni qayta ishlash darajasini oshirish keltirilgan.

vermikulitdan yarim fabrikatlar va tayyor mahsulotlar eksport ulushini 10 foizdan 80 foizgacha, chakana qadoqlangan quritilgan artemiya sistalarining eksport ulushini 2 foizdan kamida 70 foizgacha oshirishgan holda, 2025-yilda vermikulit va undan tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilish hajmini 0,5 mln dollardan 6,4 mln dollargacha, artemiya sistalarini eksport qilish hajmini 9 mln dollardan 50 mln dollargacha, qizilmiya ildizi mahsulotlarini eksport qilish hajmini 35 mln dollardan 77 mln dollargacha ko'paytirish, vermikulitdan foydalanish samaradorligini, shu jumladan, xomashyo olish koeffitsiyentini, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini va qayta ishlash darajasini oshirishga doir manzilli tadbirlarni ishlab chiqsin hamda amalga oshirish, vermikulit xomashyosini yanada chuqur qayta ishlash, talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulot turlarini kengaytirish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish to'g'risida takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Vermikulit o'zi nima?


Vermikulit lotin tilida vermiculus — chuvalchangmanosini bildiradigan — gidroslyuda guruhidagi mineral. Qizdirganda kuyib, ko'pchiydi, hajmi 10—25-marta oshib chuvalchang shaklini oladi. Tarkibida marganes, temir, alyuminiy, kremniy oksidi, kislorod va vodorod bor. Rangi qo'ng'ir-sariq, qo'ng'ir, to'q yashil. Yaltiroqligi shishasimon va sadafsimon. Qoraqalpoqstonda Sulton Uvays, Nurota (Langar koni) tog'laridan topilgan. Yirik konlari Qozog'iston (Barchin), RFda (Ural, Saxa-Yakutiya), AQSH va Avstraliyada uchraydi. 4000 gradusda qizdirgan paytda u ko'pchib, hajmi 10-25 marta kattalashadi va suv yuzasida suzadigan darajada yengillashadi. 4000 gradusda qizdirgan paytda u ko'pchib, hajmi 10-25 marta kattalashadi va suv yuzasida suzadigan darajada yengillashadi. Ko'pchigan vermikulit issiq va sovuqni o'tkazmaydigan xususiyati bor, shu bois qurilish materiali sifatida bozori chaqqon, qishloq xo'jaligida esa tuproq namligini saqlashi bilan mashhur. Taajjubki, u o'z vazniga nisbatan 500 foizgacha suyuqlikni o'zlashtira oladi. Past gigroskopikligi tufayli u atrof-muhitdan namlikni o'zlashtirmaydi. 100 foiz namlikda uning namligi hatto 10 foizga ham yetmaydi. Biologik barqarorligi tufayli vermikulit amalda parchalanmaydi

va chirimaydi. Patogen mikroorganizmlarning ta'siriga mukammal darajada qarshilik ko'rsatadi va hasharotlar va kemiruvchilarning ko'payishi uchun sharoit yaratmaydi. U ekologik toza va steril material bo'lib, toksik ta'sirga ega emas va og'ir metallarni o'z ichiga olmaydi.

Vermikulit suvni tozalashda ham ishlatiladi. Undan ekologiyada oqar suvlarni neft va yog'lardan tozalashda samarali foydalanilmoqda. Uni ishlab chiqarish jarayoni juda oddiy: ruda qazib olinadi, zavodga tashlanadi, konsentratlarga aylantiriladi va paketlarga joylashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish, qishloq xo'jaligi, chorvachilikda va boshqa sohalarda har xil maqsadlarda ishlatiladigan eksportbop mahsulot bolgan vermikulit koni Qorao'zak tumani «Qoybaq» OFY hududida (Tebinuloq koni) joylashgan bo'lib, undan foydalangan holda 3 ta korxonada tomonidan vermikulit mahsulotlari eksportga chiqarilmoqda. 2021 yilda jami 623 ming dollarlik vermikulit konsentratlari 2 ta xorijiy davlatga eksportga chiqarildi. Asosiy xaridorlar Rossiya va Turkiya davlatlaridir.

Tebinuloq vermikulit koni — Qoraqalpog'iston Respublikasining Sulton Uvays tog'larida, Nukus shahridan 75 km janubiy g'arbda joylashgan bolib, 1937-yilda aniqlangan. Uning zaxiralari 1 mln. tonnadan ziyod bolib, ruda oson boyitiladi



Bu rasmlarda biz vermikulitning kondan qozib alingan, maydalangan, maydalangan vermikulitning 1000°C haroratda qizdirilgan ko'inishi va vermikulitning parashok holatidagi rasmlarini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa: Qurilishda, sanoatda asosan, energiya manbalarini tejash maqsadida foydalaniladi. Poydevorlarga, pollarga, devorlarga, tomlariga issiqlikni izolatsiyalovchi vermikulit ishlatiladi. Vermikulit tuproqning suv va havo muvozanatini optimallashtiradi, quruq davrda suvni yaxshi saqlaydi va ildiz tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois qishloq xo'jaligida bu mineral xomashyo noyob sanaladi. U ozuqaviy moddalarni yaniy kaliy, magniy, kalsiy moddalarini o'zida to'playdi va asta-sekin o'simliklarga beradi. Hozirda yurtimizda ko'plab qurilayotgan gidroponik issiqxonalarda o'simliklar aynan ko'pchigan vermikulitga o'tqaziladi. Shu bilan birga, o'g'itlarning hosildorligi va xavfsizligi oshmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://lex.uz//docs/-5436831> 2021-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-xomashyo va mineral resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha

xomashyo bazasini kengaytirish hamda shu asosda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

2. <https://kknews.uz/oz/97788.html> Vermikulit – noyob xomashyo. Ye.Qanoatov, O'zA

3. B.R Voxidov, A.R Aripov, F.I.Sayfullayev, A.M.Ikramov Vermikulitdan turli mahsulotlar olish uchun dastlabki boyitish jarayonlari// Sanoatda raqamli texnologiyalar ilmiy-texnik jurnal, 32-38 b, 2023y.

4. Umirov.F.E, Ravshanov.O.A., Abdirazakov.I.A Vermikulit mineralining meniralogik va kimyoviy tarkibini o'rganish. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 52-56b, 2023y.

5. Афанасьев А.П., Атаманов А.В. Опыт систематизации вермикулитовых месторождений и некоторые задачи дальнейших исследований. Сб. «Исследование и применение вермикулита». Л.: Наука, 1997.-С. 21-24